



*hokimligi
maksiabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*

*maksiabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
-umumi o'rta ta'lim maktabi
to'garak rahbari*

ning

20__-20__-o'quv yili uchun

“YOSH KITOBXON”

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a’zolari haqida ma’lumot

Nº	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfı	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O‘tkazilgan xona _____

“ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari _____

To‘garak rahbari _____

**“TASDIQLAYMAN”
MMIBDO‘**

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Yosh kitobxon” nomli to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Bolalar adabiyoti	1		
2.	O‘smirlar kitobxonligi	1		
3.	Xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti	1		
4.	Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.	1		
5.	Badiiy obrazning, voqelikning aniq-tiniqligi, ko‘rimliligi.	1		
6.	Hikoya qilishda lirik yoki komik maylning kuchliligi.	1		
7.	Xarakter va hodisalar ifodasida dinamikaning yorqinligi.	1		
8.	Tilning aniqligi, tushunarligi va serqirraligi.	1		
9.	Maqol	1		
10.	Topishmoqlar	1		
11.	Tez aytishlar	1		
12.	Bolalar kitobxonligi tabiatni.	1		
13.	Abdulla Avloniy islohotchi pedagog va bolalar shoiri	1		
14.	Hamza Hakimzoda ma’rifatparvar bolalar shoiri	1		
15.	Elbek bolalar shoiri va islohotchi pedagog	1		
16.	Hamid Olimjon bolalarning ertaknavis shoiri	1		
17.	G‘afur G‘ulom bolalar shoiri va nosiri	1		
18.	Oybek Oybekning bolalik olami	1		
19.	Sulton Jo‘ra – o‘smirlar kuychisi	1		
20.	Zafar Diyor	1		
21.	Quddus Muhammadiy	1		
22.	Shukur Sa’dulla	1		
23.	Ilyos Muslim	1		
24.	Hakim Nazir o‘zbek bolalar realistik nasrining sohibkori	1		
25.	Mirkarim Osim	1		
26.	Po‘lat Mo‘min bolalarning qo‘shiqnavis shoiri	1		
27.	Qudrat Hikmat	1		
28.	Nosir Fozilov ijodida bolalar va o‘smirlar ruhiyati talqini	1		
29.	Farhod Musajon- ko‘p qirrali ijodkor	1		
30.	Xudoyerberdi To‘xtaboyev bolalarning sargyzasht va romannavis adibi	1		
31.	Miraziz A’ zam she’riyatining falsafiy-badiiy o‘ziga xosligi	1		
32.	Safar Barnoyev bolalar shoiri va nosiri	1		
33.	Tursunboy Adashboyev she’riyatida bolalik va tabiat munosabati ifodasi	1		
34.	Anvar Oobidjon- bolalar shoiri, adibi va dramaturgi	1		
35.	Alisher Navoiy – bolalar kitobxonligida	1		
36.	Zulfiya she’rlari	1		
37.	Boborahim Mashrab g‘azallari	1		

38.	Muhammad Sharif Gulxaniy	1		
39.	Milliy uyg‘onish harakatining bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.	1		
40.	Muhammad Yusuf	1		
41.	Ezop masallari va ularning ibratlari haqida	1		
42.	Ahmad Yassaviy hikmatlari	1		
43.	Mirtemir she’rlari	1		
44.	O‘tkir Hoshimov Dunyoning ishlari (qissadan boblar)	1		
45.	Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari	1		
46.	Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy «Sayohatnomा»	1		
47.	Sa’diy Sheroziy «GULISTON»dan Hunar o‘rganmoq haqida	1		
48.	Abdulla Oripov	1		
49.	Mahmudxo‘ja Behbudiy	1		
50.	Sadriddin Ayniy	1		
51.	Abdurauf Fitrat	1		
52.	Abdulla Qodiriy	1		
53.	G‘ulom Zafariy	1		
54.	Istiqlol davrida adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.	1		
55.	Hamza Imonberdiyev	1		
56.	Kavsar Turdiyeva	1		
57.	Dilshod Rajab	1		
58.	Abdusaid Ko‘chimov	1		
59.	Chet el adabiyotining an’analari.	1		
60.	Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar	1		
61.	Sharl Perro	1		
62.	Hans Kristian Andersen	1		
63.	Jonatan Swift	1		
64.	Janni Rodari	1		
65.	Aleksandr Sergeevich Pushkin	1		
66.	Tolstoy Lev Nikolayevich	1		
67.	Korney Chukovskiy	1		
68.	Samuil Yakovlevich Marshak	1		

Mavzu: Bolalar adabiyoti

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiyl maqsad: to'garak a'zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, ularni so'z boyligini o'stirish, uning og'zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmlli va zehnli bo'lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatl o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamondan bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

Mashg'ulot jihizi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriquqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bolalar adabiyoti — bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiyommabop va publisistik asarlar majmui. Bularning asosiy kismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiklari, rivoyat, afsona, ertak, makal, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalardan boshlanadi. Bolalar adabiyoti ni bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsada, keyinchalik Bolalar adabiyoti ga o'tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.

Bolalar adabiyoti ning o'ziga xos xususiyati — o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar adabiyoti ning eng asosiy xususiyatlaridandir. Maye, maktabgacha yoshdagil bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Bolalar adabiyoti ning yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan Bolalar adabiyoti da syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda ye.chilishini talab qiladi.

Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "mav'izatnoma", "nasihatnoma", "axloq kitoblari" singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar Bolalar adabiyoti ning dastlabki namunalari hisoblanadi. Maye, Kaykovusning "Mav'izatnomai Kaykovus" ("Qobusnoma"), Shayx Savdiyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston" asarlari shular jumlasidandir. Bular tarjima vosisasida o'zbek Bolalar adabiyoti ga kirib kelgan. Alisher Navoiyning "Hayrat ulabror", "Mantsh uttayr" va "Mahbub ulqulub" asarlari, Xojaning "Miftoh ulndl" va "Gulzor", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarlari esa o'zbek Bolalar adabiyoti ning mumtoz namunalari bo'lib, pandnasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Bolalar adabiyoti ning shakllanishi deyarli barcha xalqlarda asosan ma'rifatparvarlik va maktabmaorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek Bolalar adabiyoti ning barqarorlashuvi ham 19-asr 2 yarmi — 20-asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqa o'nlab ma'rifatparvarlarning "yangi usul" ("usuli jadidiya")dagi o'zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari o'zbek Bolalar adabiyoti ning tom ma'nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Bolalar adabiyoti ga bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o'ziga xos tamoyillarini belgilash 20-asr boshlariga xosdir.

O'zbek Bolalar adabiyoti jahon Bolalar adabiyotining ilgor an'analari ta'sirida rivojlandi. Jahon Bolalar adabiyoti ning nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilindi, "Gulliverning sayohatlari" (J. Swift), "Robinzon Kruzo" (D. Defo), "Tom tog'aning kulbasi" (BicherStou), "So'na" (E. Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o'zbek bolalarning ham mulki bo'lib qoldi.

Sharq adabiyoti eng yaxshi namunalarini arab, fors tilidan tarjima qilish Bolalar adabiyoti tarjimachiligidagi bir yo'nalish bo'lsa, G'arb adabiyoti, xususan rus adabiyoti namunalarini o'zbekchallashtirish ikkinchi yo'nalishni tashkil etdi. I. A. Krilov masallari, A. S. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak" asari, K. D. Ushinskiy hamda L.N. Tolstoyning bir qancha hikoya, ertaklari va boshqa ayni shu davrda tarjima qilinib, yangi usuldagagi maktablar alifbo va o'qish kitoblariga kiritildi. Ijodkorlar tarjima vosisasida realistik Bolalar adabiyoti ning o'ziga xos xususiyatlarini yanada mukammal egalladilar, bolalar uchun yozuvchi adiblar guruhi shakllandi. 20-asrning 20—30- yillarda Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, Gulom Zafariy, Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Kudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min va boshqa ijodkorlarning asarlari o'zbek Bolalar adabiyoti ning rivojlanishida, maxsus adabiyot sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

IV. Mashg'ulotni yakunlash: to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarni mustaxkamlab kelish.



Sana: "___" 20__-yil. Sinflar: ___ To'garak rahbari: _____

Mavzu: O'smirlar kitobxonligi

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiylar maqsad: to'garak a'zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, ularni so'z boyligini o'stirish, uning og'zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmlli va zehnli bo'lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalişlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamonda bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

Mashg'ulot jahozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'smirlar kitobxonligi esa o'quvchilarining shu yoshdagagi ruhiyatiga monand ancha murakkab. O'smirlik insonning bolalikdan kattalar olamiga o'tayotgan va aytish mumkiinki, nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davridir. Bu bolaning 5-6-sinfda o'qish paytlariga to'g'ri kelib, 13 yoshdan 16-17 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlikda rivojlanishning fiziologik, biologik, aqliy, ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan to'lisha borishi ko'zga tashlanadi. O'smirlar o'z ideallari (mutlaq ijobiy)ni orzu qilib, uni o'zlarida ro'yobga chiqarishni xohlaydilar. Bu yoshda biror kasb yoki hunarni egallashga qiziqish va intilish paydo bo'ladi. Muhimi, o'smir o'zini tarbiyalashda kitob, kinofilm qahramonlaridan andaza oladi. Shunday ekan, o'smirlarga mo'ljallangan badiiy adabiyotning vazifasi ham o'ta mas'uliyatlari va serqirradir. Unutmaslik kerakki, o'smirlik inson hayotining ajoyib pallasi, shaxs sifatida shakllanishining asosi. O'smirning aqliy kamolotga yetishuvni muhim o'ringa ega. Ularning o'z fikrini aniq ifodalashga yo'naltirish, mustaqil mulohaza yuritish ko'nikmasiga ega bo'lish, qolaversa, bu jarayonni anglab yetishlarida badiiy ijodning ta'siri diqqatga sazovor. Xususan, Oybek, A.Qahhor, M.Osim, N.Safarov, O.Muxtor, T.Malik kabi yetuk adiblarning biografik va avtobiografik qissalarini, esse hamda hayotiy hikoyalari bu jarayonda dasturulamal bo'la oladi. O'smirlardagi ulkan ma'naviy ehtiyoj va shaxs sifatida kamol topish zaruratini o'z vaqtida payqagan M.Gorkiy XX asrning 30-yillarda "Mashhur kishilar hayoti" ruknida badiiy-biografik asarlar ijod etish tashhabbusi bilan chiqqan edi. Shu munosabat bilan mashhur yozuvchi, olim, bastakor, harbiy sarkarda, mohir hunarmandlar-u jahon urushi va mehnat qahramonlarining hayoti, ijod yo'li badiiy-tadqiqiy namunasi bo'lgan yuzlab asarlar yaratildi. Yakunlangan asrning yetmishinchi yillariga kelib, bu ruknda asarlar ijod etish an'anasi o'zbek ijodkorlari faoliyatida ham ko'rina boshladи. Endilikda Aziz Qayumovning "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino"; Laziz Qayumovning "Hamza"; Naim Karimovning "Hamid Olimjon", "Oybek", "Cho'lp'on", "Usmon Nosir"; Adham Akbarovning "G'afur G'ulom"; Ozod Sharafiddinovning "Abdulla Qahhor"; Bo'riboy Ahmedovning "Mirzo Ulug'bek", "Amir Temur"; Otayorning "Mirtemir", "Islom shoir"; Habib Karimovning "O'ral Tansiqboyev" singari asarlar shu yo'nalişdagi izlanishlarning samaralari bo'lib, o'zbek voqeligini ilmiy-ma'rifiy asosda badiiy tadqiqi etganligi bilan e'tibor qozonib borayotir. Bunday asarlar o'smirlarni insonparvarlik, tarixiy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, ularning kasb tanlashlariga ko'maklashadi, ajdodlar jasoratidan iftixor qilish tuyg'ularini o'stirib, chinakam vatanparvar inson sifatida kamol topishlariga ta'sir ko'rsatadi.



IV. Mashg'ulotni yakunlash: to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarni mustaxkamlab kelish.

Sana: "___" 20__-yil. Sinflar: ___ To'garak rahbari: _____

Mavzu: Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limi maqsad: to'garak a'zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, ularni so'z boyligini o'stirish, uning og'zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmli va zehnli bo'lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalişlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamondan bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

Mashg'ulot jihizi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti xilma-xil adabiy tur va janrlarda namoyon bo'lgan hodisa sifatida kishilik jamiyati tarixida ko'p vazifali ijtimoiy-estetik mohiyatga ega so'z san'ati hisoblanadi. U hamma zamonlarda ham o'z ijodkori bo'lgan xalqning orzu-armonlarini ifodalab keldi, qolaversa, xalqning o'z-o'zinigina emas, balki bolalarning ham ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarmoqda. Bolalar xalq ijodiyotidan ota-bobolarining hayot tajribasini, mehnat va kurash ilmini o'rganib kelayotirlar. Ular xalq qo'shiqlaridan, doston-u ertaklaridan, afsona-yu rivoyatlaridan sevish-sevilish, samimiyat, insoniylik, sabr-u qanoat, mehnatda fidoiylik, eng muhimi, otalari yashab obod etgan Vatan tuyg'ularini idrok etish asnosida yurt erki va ozodligi uchun kurashgan buyuk ajdodlari To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy va Amir Temurlarning jasoratlaridan saboq olmoqdalar, yashash va yaratish romantikasidan surur tuymoqdalar. Binobarin, xalq ijodiyoti qadim zamonlardan hozirgacha bolalar uchun ham ezgulikni qadrash va yovuzlikdan nafratlanish sabog'i bo'lib, avloddan avlodga o'tgani sayin muttasil to'lishib, mukammalashib, og'izdan-og'izga ko'chgani sayin tobora sayqallanib, xalq milliy ruhini teranroq aks ettirgan holda asrlar davomida avlodlar ma'naviy-axloqiy vorisligini ta'minlab keldi, jamoa ijodi namunasi sifatida xalq zakovatini, iste'dodini va til boyligini namoyish etdi, xalq uchun o'zligini anglash, o'z tarixini sevish vositasiga aylanib qoldi, eng muhimi, yozma adabiyotning bunyodga kelishida genetik asos vazifasini bajardi. Bu silsilada bolalarning o'z folklori ham muayyan rol o'ynadi.

Binobarin, bolalar folklori – kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir.

Shunga qaramay, o'zbek bolalar folklori namunalarini to'plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o'rganishga uzoq zamonlar e'tibor berilmay kelindi. XX asrning dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan bo'lsa-da, u uzlusiz jarayonga aylanmadi. Elbek to'plab, tartib berib 1937-yilda chop ettirgan "Bolalar qo'shig'i" to'plamidan O.Safarov tartib bergan "O'zbek xalq ijodi" seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan "Boychechak" to'plamigacha kechgan salkam yarim asrlik uzilish ana shu fikr dalili bo'la oladi. O'zbek bolalar folklorini o'rganish 60-yillardan e'tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovaning "O'zbek topishmoqlari" (1966), G'.Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori" (1975), shuningdek, O.Safarovning "Bolalarni erkaloqchi o'zbek xalq qo'shiqlari" (1983), "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985), "Alla-yo alla" (1999), "Chittigul" (2004), "O'zbek xalq bolalar o'yinlari" (2012) Sh.Galiyevning "O'zbek bolalar o'yin folklori" (1998) singari tadqiqotlar tufayli bu izlanishlarning samaralari ko'zga tashlanadigan bo'ldi. Shuni ham aytish kerakki, folklorshunoslar orasida mavsum va marosim qo'shiqlariga munosabatda ularning ijodkori har qachon kattalar bo'lganini e'tirof etish bilan bolalarning bu sohadagi qo'shiqchilagini yo'cheklash, yo tamoman inkor etish hollari ham mavjud. To'g'ri, marosimlarni kattalar uyuşhtirganlar. Ularning o'tkazilish tartiblarini ham, rasm-rusumlari va qo'shiqlarini ham kattalar ijod etganlari rost. Lekin unutmaslik lozimki, shu marosimlarning birortasi ham bolalar ishtirosiz o'tmagan; hech bo'Imaganda, bolalar tomoshabin sifatida unga qatnashganlar va kattalar bajargan ishlarni ko'rgach, o'sha marosimni keyinroq o'yinda muqallid qilib o'zlarini bajarganlar, shu muqallidlariga yarasha qo'shiqlarni to'qiganlari ham ayni haqiqat. Binobarin, bolalarning ham o'z marosim va mavsum qo'shiqlari yuzaga kela boshlagan. Bu jarayon davr o'tishi, turmush sharoitining o'zgarishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning tug'ilashini yoki bu marosimning tamoman yo'qolishi, yo shunchaki kattalar o'rtasida nufuzini yo'qotishi natijasida o'sha marosim bolalar o'yini yoki ijrochiligidagi yashash shakliga o'tishi bilan yanada chuqurlasha borgan. Bunday holatni "Boychechak", "Chittigul", "Binafsha", "Oppoqijon" kabi mavsum qo'shiqlari misolida yaqqolroq ko'rish mumkin.

IV. Mashg'ulotni yakunlash: to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarni mustaxkamlab kelish.



Mavzu: Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiyl maqsad: to'garak a'zolari faolligi va mustaqilligini oshirish, ularni so'z boyligini o'stirish, uning og'zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmlli va zehnli bo'lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg'ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamondan bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

Mashg'ulot johozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bolalar uchun ham, kattalarga bo'lgani singari, inson va jamiyatga, tabiatga daxldor barcha mavzularda ijod etish mumkin. Bu farqli xususiyat mohiyatini A.A.Makarenko bolalar uchun yozayotganda *nima haqda yozish emas, balki qanday qilib yozishning muhimligida*, deb ko'rsatgan edi. Shu jihatdan kattalar turmushining murakkab qirralarini ifodalovchi maishiy hayot mavzusida Q.Muhammadiyning bolalarbop qilib yozilgan "Qo'ng'izoy bilan Sichqonboy" she'riy adabiy ertagi bu fikrga asos bo'la oladi. Bu asar 1940-yilda yozilgan bo'lib, dastlab "Mushtum" jurnalida "Qo'ng'iz bikach bilan Sichqonboy" nomi ostida bosilib chiqqan. Asar uchun tanlangan voqelik, muammo, g'oya kattalar hayotiga to'g'ri kelsa-da, ammo u allegorik obrazlar vositasida tasvirlangani bolalarbop mohiyat kasb etgan.

Bolalar adabiyoti tarbiya quroli sifatida kichkintoylarga bilim berish vazifasini ham bajaradi, ularning qiziqishlari doirasini kengaytiradi. Garchi u "kattalar" – ijod ahli tomonidan yaratilsa-da, bolalar olamini bolalarga xos nuqtayi nazardan badiiy tadtqiq qiladi. Bolalar adabiyotining bosh xususiyati ham ana shunda: narsa-hodisalarga bolalar ko'zi bilan qaray bilish, ularni bolalarcha idrok eta bilish, ularga bolalarcha munosabat ko'rsata olish hamda ulardan bolalarcha hayratlanishda. Bolalarini onalaridan yaxshiroq tarbiyalaydigan odam yo'q, chunki ular bolalar his qilgan narsani his etadilar, ular bilan birga kuladilar, yig'laydilar. Bunday ijodiy fazilat nafaqat bolalar adabiyotiga, balki uning bunyodkorlariga ham xos xususiyat bo'lib, har qanday yozuvchiga ham nasib qilavermaydi. Buni chuqur his etgani bois K.I.Chukovskiy: "Bolalar – bizning ustozimiz", – deya iqror bo'lgan edi. Chindan ham bolalarni ustoz darajasida anglamoq – bu, avvalo, ularga yuksak ehtirom ko'rsatmoq, ularning xarakterlarini, qiziqish va intilishlarini, kishilarga, narsa va hodisalarga munosabatlarini, quvonch va iztiroblarini sinchkovlik bilan o'rganmoq, ayni zamonda shu jarayonni bolalarcha his etish, idrok qilish asosida ular uslubiga muvofiqlashtirish, badiiyat sintezidan o'tkazmoqdan iborat san'atkorlikdir. Rost, inson ulg'aygani sari o'z bolaligidan uzoqlashadi, bolalik tabiatidagi xususiyatlarni yo'qota boradi. Biroq bolalar yozuvchisi bundan mustasno; u inson sifatida har qancha ulg'aymasin, baribir, bolalik tabiatini saqlab qolmog'i, uni tobora teranlashtirmog'i, bolalarcha sinchkov va qiziqsinuvchi bo'lib, ular ko'ngliga yo'l topmog'i, ruhiy dunyosiga kira bilmog'i shart. Shundagina u chinakkam bolalar yozuvchisiga aylana oladi. Insonshunoslik adabiyotning bosh masalasi ekan, bolalar adabiyoti ham shu makon va zamondan ayri rivojlanmaydi. Jamiyat taraqqiyotida ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlar, tarixiy hodisalar, kishilar ruhiyatidagi evriliblarkichkintoylar adabiyotida ham zuhur topadi. Shunday ekan, bolalar adabiyotining uzoq yoki yaqin o'tmishidagi o'ziga xosliklar hozirgi adabiy jarayonda bir muncha yangilanishi tabiiy. Chunki har bir davr o'z adabiyoti oldiga eng dolzarb va g'oyat muhim talablarni qo'yadi. Shu ma'noda, o'tgan asrboshlarida bolalar adabiyotining tarbiyaga xizmat qilishi, xalq bolalarini bilimli, ma'rifatl qilishga da'vat etishi, ularning qoloq maishiy hayotini ko'rsatib berishi asosiy mezon qilib belgilangan bo'lsa, sho'ro mafkurasi davrida asosan, "baxtiyor yosh avlod" obrazini tarannum qilish bosh yo'nalish kasb etdi. Qahramon ruhiyatini ochish, bolalar va o'smirlikdagina kechadigan tuyg'ular, murakkab ruhiy holatlarning badiiy tasviri juda kam asarlarda ko'zga tashlandi. Bolalar adabiyotidagi pedagogik talablar uning so'z san'ati sifatidagi badiiy ijod o'zanlariga band soldi. Faqat o'tgan asrning so'nggi choragi, aniqrog'i, 80-yillardan boshlab bolalar adabiyoti yakranglikdan qutula boshladи. Istiqlol arafasi va mustaqillik yillaridagina bolalar adabiyoti mavzu va qahramon, shakl va mazmun, janrlar xilma-xilligi jihatidan sezilarli darajada o'zgardi. Binobarin, o'zbek bolalar adabiyoti o'z taraqqiyotida umumadabiyotga mushtarak va farqli xususiyatlarga hamohang tarzda rivojlandi. Binobarin, bolalar adabiyoti tabiat va jamiyatdagi barcha mavzularda ijod etish jihatdan umumadabiyotga yaqin, "qanday qilib yozish muhim"ligi esa uning o'ziga xos jihatidir. Bu tarixiy tasnif mohiyati ayniqsa istiqlol davri bolalar adabiyotida yorqin ko'zga tashlanadi.

IV. Mashg'ulotni yakunlash: to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

V. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

75 listdan iborat “Yosh kitobxon” nomli o‘quvchilarga 68 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Narxi: 30 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.